

BOSHLANG‘ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA QO‘LLANILADIGAN METODLAR

Sharipova Adiba Botirjon qizi

*DTPI pedagogika fakulteti Boshlang‘ich ta’lim
yo‘nalishi 3-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf ona tili darslarida qo‘llaniladigan metodlarning turlari haqida so‘z boradi. Metod turlarining o‘ziga xos ta’limiy va tarbiyaviy jihatlari haqida batafsil ma’lumot beriladi.

Kalit so‘zlar : tushuntiruv-bayon qilish, suhbat, analiz-sintez, mustaqil ish, induktiv, deduktiv metodi, kakografiya, bumerang, blits-so‘rov, klaster, keys-stadi, germenektiv suhbat metodi .

Ona tilini o`qitishda o`qituvchi bilan o`quvchining birlgiligidagi faoliyatini tashkil etish shakllari, metodlari va usullari ta’lim tizimining takomillashuvi bilan bog`liq holda rivojlanib, yangilanib bormoqda.

XX asrning oxirgi yillariga qadar o`qitish metodlari sifatida tushuntirish-bayon metodi, suhbat metodi, analiz-sintez metodi, mustaqil ish metodi, induktiv va deduktiv metodlar ona tili ta’limi darslarini tashkil etishda ko’proq qo‘llanilib kelindi.

Bayon qilish metodi ona tili darslarida qo‘llangan asosiy metodlardan biri bo’lgan. Bunda o`qituvchi bayon qilishdan oldin o`quvchilarning o`rganilayotgan mavzu yuzasidan bilimlarini aniqlab olgan. Bu o`quvchilarni o`qituvchi bayonini kuzatib, tinglab borishga, faol bo’lishga undagan. O`qituvchining bayoni, ya’ni bayon qilish metodida grammatik mavzuning xususiyatidan kelib chiqib, o`qituvchi ma’lumotlarni o`z so`zlari bilan bayon qilib bergan. Bunda o`qituvchi zimmasiga o`rganilayotgan grammatik mavzuning muhim o`rinlarini aniq, lo`nda, misollar tahlili bilan izchil bayon qilib berish vazifasi yuklangan. Boshlang‘ich sinflarda bayon yo`naltirilgan savollar tuzishni, ularni o`quvchilarga izchil berib borishni talab etadi.

Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida mustaqil ish metodi asosan o`rganilgan mavzuni mustahkamlash qismida mashqlar ishlash jarayonida qo‘llaniladi. O`quvchilar o`qituvchining topshirig`i bilan mustaqil ishlarni og`zaki yoki yozma shaklda bajaradilar. Topshiriq qiyin va ko`p vaqtini olmasligi, o`quvchilar kuchi yetadigan qilib, muayyan vaqt ichida tushuntirishga mo`ljallangan bo`lishi kerak.

Analiz-sintez metodi savod o`rgatish darslariga rus-tuzem maktablari va tatar o`qituvchilarining faoliyati orqali kirib kelgan. Ona tili ta’limi jarayoniga analiz - tahlil grammatik hodisaning muhim belgilarini aniqlash maqsadida, o`rganilgan

grammatik tushunchaning yangi qirralarini ochish va mustahkamlash maqsadida tatbiq etiladi.

Induksiya metodida o`quvchilar o`qituvchi tavsiya etgan til dalillarini kuzatadi, tahlil qiladi va shu asosda xulosa va ta`riflar keltirib chiqaradi.

Deduksiya metodida o`quvchi tayyor qoida - ta`rif bilan tanishadi va uning mohiyatini til dalillari asosida ochadi.

Tilning o`ziga xos nafosatini o`quvchilarga yetkazish, his qildirish, sezish va undan oqilona foydalanish maqsadida hozirda ona tili ta`limida an'anaviy usullardan tashqari zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanilmoqda. Keyingi yillarda breynrayting, breynstorming, aqliy hujum, bumerang, blits-so`rov, klaster, keys-stadi, germenekativ suhabat kabi turli tuman metodlar paydo bo`ldi. Shunday usullardan biri kakografiyadir.

Kakografiya so`zi lotincha “kakos” – yomon, xunuk, yoqimsiz va graphos – yozmoq so`laridan olingen bo`lib, muayyan maqsadni ko`zlab xatoliklarga yo`l qo`yilgan matnni tuzattirish orqali o`quvchilarga imloni o`rgatish usuli sanaladi. Kakografiya interfaol usullardan biri sifatida o`quvchilarni mustaqil fikrlashga, narsalarni bir-birlari bilan solishtirishga, izlanishga, masalaning yechimini topishga, eng muhimmi ona tili darslarida olingen bilim va malakalariga asoslanib, muayyan mavzular bo`yicha zaruriy xulosalar chiqarishga yordam beradi. O`quvchilardagi loqaydlik, beparvolikni yo`qotib, dadillikka, ijodkorlikka chorlaydi, mutelik, tobelik, nofaollik kabi salbiy xususiyatlarga barham beradi. Ayniqsa, fonetika, grafika, orfografiya, leksika va morfologiya bo`limlari bilan bog`liq amaliy darslarni o`tishda kakografiya usuli yaxshi samara beradi. Masalan, o`quvchilarga unli va undosh tovushlar bo`yicha yetarlicha ma`lumotlar berilgach, “Mustahkamlash darslari” yoki “Takrorlash darslari”da turli topshiriqlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Bunda asosiy e’tibor so`zlarning aytilishi va yozilishi o`rtasidagi farqqa qaratiladi.

Tajribadan ma`lumki, o`quvchilarning aksariyati ona tili darslarida imlo qoidalari puxta o`zlashtirmaydilar. So`zlarni qanday aytilsa, shunday yozishga odatlanib qoladilar. Shuningdek, o`quvchilarning nutqidagi dialektal xatoliklar ularning savodxonligiga soya soladi. Bu esa bora-bora ulardagи savodxonlik darajasining qotib qolishiga, so`zlarning muntazam ravishda xato yozilishiga sabab bo`ladi. Bu kabi xatoliklarning oldini olish maqsadida “O`zbek tilining imlo qoidalari”dagi “Ayrim unlilar va undoshlar imlosi” yuzasidan tegishli nazariy ma`lumotlar mavzular o`tilgach, quyidagicha topshiriq beriladi:

So`zlarni o`qing, xato yozilgan o`rnlarni topib, o`zbek tilning imlo qoidalariغا mos ravishda ularni to`g`rilang va daftaringizga ko`chirib yozing.

Kakografik yo`nalishdagi bunday topshiriqlarni bajarish bilan quyidagi natijalarga erishish mumkin: □

- O‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi aloqa mustahkamlanadi; □
- O‘quvchilar ona tilidan olingan bilim va malakalarini xotirlashga, esga olishga harakat qiladi;

-Materialarni bir-biriga solishtiradi, taqqoslaydi;

-Xulosalar chiqaradi, orfografik bilimlarni mustahkamlaydi.

Kakografiyaning yana bir ko‘rinishi: matn ichida noto‘g‘ri berilgan so‘zlarni to‘g‘rilashdan iborat. Gaplarni o‘qing, noto‘g‘ri yozilgan so‘zlarni orfografiya qoidalariga mos ravishda ko‘chirib yozing.

Bu metodlarning samarasi o‘qituvchining savol-topshiriqlari mazmuni grammatik hodisaning muhim tomonlariga yo‘naltirilganligiga, izchilligiga, faoliyatni tashkil etish shakllariga, o‘quv vositalari (darslik, turli xarakterdagi lug’atlar, rasm, jadvallar, texnik vositalar)ga bog‘liq bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida barcha metodlarning muvaffaqiyati o‘qituvchining beradigan savol-topshiriqlariga bog‘liq. Yo‘l-yo`lakay duch kelgan savollar bilan kichik yoshdagи o‘quvchining anglash faoliyatini ishga solish kutilgan natijani bermaydi.

Foydalaniłgan adabiyotlar:

1. Shayxislamov, N. (2020). So‘z urg‘usining o‘zbek va ingliz tillaridagi farqlash vazifasining qisqacha tavsifi. O‘zbekistonda innovatsion ilmiy tadqiqotlar va metodlar
2. Qosimova K., Matchonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariyev Sh.. Ona tili o‘qitish metodikasi (Boshlang‘ich ta’lim fakulteti talabalari uchun darslik) – Toshkent : 2009
3. Xaitov X.. Ona tili o‘qitish metodikasi (O‘quv qo‘llanma) – Buxoro : 2022
4. www.scientifieprogress.uz
5. www.ziyonet.uz